
2-SEKTOR HUDUDIDAGI “AYOLLAR DAFTAR”I GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA KO’RSATILGAN YORDAMLAR RAQAMLARDA



2-sektor hududidagi “Ayollar daftar”i ga kiritilgan xotin-qizlarga ko’rsatilgan yordamlar raqamlarda

So’x tumani hokimligi oila va xotin-qizlar bo’limi mutasaddilarining bizga bergan ma’lumotlariga asosan 2-sektor hududida jami “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar soni **697** nafarni tashkil etadi. Yil davomida barcha ruyixatdagi ayollar va xotin-qizlarga amaliy yordam ko’rsatilgan.

1-toifa ruyixatiga kiritilgan ayollar soni **482** nafarni tashkil etadi va bu ayollarning barchasi **100** foiz ish bilan ta’minlangan.

2-toifa - tadbirkorlik qilish bo’yicha “Ayollar daftari”ga kiritilganlar soni 33 nafarni tashkil etadi.

3, 4, 6-toifa - boquvchisi bo’lmagan, I va II-guruh nogironi bo’lgan xotin-qizlar va qaramog’ida nogiron farzandlari bor xotin-qizlarga “Ayollar jamg’armasi” tomonidan bir martalik moddiy yordam ko’rsatildi. Umumiy soni 182 nafar bo’lgan bu xotin-qizlarga **1 million 200 ming so’mdan**, jami **218 million 400** ming so’m mablag’ berilgan.

Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II-guruh nogironligi bo’lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand **69** nafar xotin-qizlar sektor kesimida ruyixatga olingan. Bugungi kunda barcha ayollarga amaliy yordam berilib, “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan **73 million 200 ming so’m** mablag’ yo’naltirildi.

Qaramog’ida nogironligi bo’lgan farzandi mavjud ehtiyojmand **59** nafar xotin-qizlarga “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan **70 million 900 ming so’m** mablag’ tuman Xalq banki tomonidan tarqatib berildi.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-11 11:23:17